



## **OLAMNING LISONIY MANZARASINI HOSIL QILISHDA KOGNITIV- SEMANTIK VOSTILARNING ROLI**

**Barotova Nigina Sharofovna**

Buxoro davlat universiteti

2-bosqich tayanch doktoranti

niginabarotova1990@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15657443>

Til — bu nafaqat aloqa vositasi, balki inson tafakkurining ko‘zgusi, dunyoni idrok etish va baholash vositasidir. Lisoniy manzara deganda til orqali ifodalangan va ongda shakllangan voqelik tasavvurlari majmui tushuniladi. Mazkur manzaraning shakllanishida konnotativ so‘zlar, frazeologizmlar, mifologemalar, metaforalar muhim rol o‘ynaydi. Biz ularni adabiy janrlarda ko‘rganizmizda badiiy vositalar deb o‘rganganmiz, ammo ular tilshunoslik sohasida kognitiv-semantik vositalar sifatida qaraladi. Ushbu maqolada biz bu birliklarning olamning lisoniy manzarasini yaratishda asosiy vosita sifatida qaralishini tahlil qilib, kognitiv tilshunoslik nuqati nazaridan misollar bilan boyitamiz.

### **Asosiy qism**

“Olam manzarasi” - bu bizning haqiqat haqidagi g‘oyamiz, insonning barcha ma‘naviy faoliyatining natijasi bo‘lgan dunyoning yaxlit, global qiyofasi, shuningdek, insonda uning dunyo bilan barcha aloqalari va dunyo haqidagi g‘oyalari davomida paydo bo‘ladigan birlikdir. Agar dunyo inson va ularning o‘zaro ta‘sirida atrof-muhit bo‘lsa, u holda dunyo manzarasi atrof-muhit va shaxs haqidagi ma‘lumotlarni qayta ishlash natijasidir<sup>1</sup>. Shunday ekan, “Dunyo tasviri” yoki “dunyo manzarasi” tushunchalarini insonning haqiqat haqidagi tasavvuri, uning barcha ma‘naviy faoliyati asosida shakllanishini va bu tasvir inson ongida dunyo bilan bevosita va bilvosita o‘zaro aloqalari davomida paydo bo‘lishini anglashimiz lozim. Ya‘ni inson atrofidagi muhitni kuzatadi, tahlil qiladi va o‘z tajribasi orqali uni anglaydi va natijada, inson ongida dunyoning yaxlit, ichki modeli – ya‘ni dunyo tasviri vujudga keladi. Olamning lisoniy manzarasi inson tafakkurining til orqali ifodalanish shakli sifatida turli obrazli va emotsional boyliklar bilan mujassamdir. Bu manzara nafaqat oddiy semantik birliklar orqali, balki aforizmlar, mifologemalar, metaforik iboralar, o‘xshatishlar, konnotativ so‘zlar, madaniy stereotiplar, timsol (ramz)lar va boshqa poetik vositalar orqali ham yuksak darajada ifodalanadi<sup>2</sup>. Bu vositalar





orqali til egasining dunyoni qanday idrok etishi, uni qanday baholashi va tasniflashi ochib beriladi va ulardan biri konnotativ soʻzlar hisoblanadi. Konnotativ birliklar olamning lisoniy manzarasini yaratishda inson kognitiv xaritasining ifodasi sifatida qaraladi. Ular yordamida inson oʻz idroki va bahosini tilga koʻchiradi. Konnotativ maʼno — bu soʻzning asosiy (denotativ) maʼnosidan tashqari, ungayuklangan emotsional, baholovchi yoki madaniy maʼnolar majmui<sup>3</sup>. Masalan: “ona” soʻzining denotativ maʼnosi farzand tugʻib, uni tarbiyalagan ayol boʻlsa, konnotativ maʼnosida esa uning mehr, fidoyilik, muhabbat timsoli ekanligi ham anglashiladi. Olamning lisoniy manzarasini aks ettirishda konnotativ soʻzlarning oʻrni nihoyatda muhim, chunki konnotatsiya til vositalariga subyektiv, emotsional va madaniy rang-baranglik baxsh etadi. Bu xususiyatlar insonning dunyoni qanday his qilishi, baholashi va tasvirlashi bilan bevosita bogʻliq boʻlib, lisoniy manzaraning antropotsentrik va madaniy xususiyatlarini ochib beradi. Har bir til va madaniyat uchun oʻziga xos qoʻshimcha maʼnolarning- konnotatsiyalarning vujudga kelishi xarakterlidir. Ularning paydo boʻlishi mazmunlarning ayrim aspektlari kuchayishi bilan bogʻliq. Bunda ayrim assotsatsiyalar (tasavvurlar) konnotatsiyalarning vujudga kelishi uchun daliliy asoslarni tashkil qiladi, soʻzning asl maʼnosi esa bu yerda koʻchma maʼnoga nisbatan ichki shakl yuzasida maydonga chiqadi. Odatda denotatdan alohida hususiyatlar ajralib chiqib, ularning obrazi konnotativ soʻzning ichki shaklida gavdalanadi<sup>4</sup>. Konnotatsiya — insonning dunyoni qanday his qilishi va shaxsiy bahosi orqali vujudga keladi. Masalan, “qora kun” iborasi kunning qoraligini, yaʼni qorongʻulik maʼnosiga ega emas. U insonning ruhiy tushkunligi, yoʻqotish, umidsizlik holatini anglatadi. Bu orqali soʻz subyektiv tajriba, madaniy stereotip (qora — salbiylik ramzi) va emotsional bahoni oʻzida jamlaydi.

Demak, konnotativ soʻzlar orqali til insoniyatning emotsional va madaniy olamiga kirib, ular nafaqat voqelikni ifodalaydi, balki uni baholaydi, tasniflaydi va tasvirlaydi, bu esa lisoniy manzaraning boy, koʻp qirrali va insoniy xarakterga ega ekanini isbotlaydi. Olamning lisoniy manzarasini yaratishda frazeologizmlar ham alohida rol oʻynaydi. Ular “xalq hayotining koʻzgusi” dir<sup>5</sup>. Frazeologik birliklarning tabiati til egasining bilimlari, hayotiy tajribasi va mazkur tilda soʻzlashuvchi xalqning madaniy tarixiy anʼanalari bilan chambarchas bogʻliqdir. Ularning semantikasi insoniy faoliyat, his-tuygʻular, ijtimoiy munosabatlar hamda axloqiy meʼyorlarni ifodalashga yoʻnaltirilgan boʻlib, tilning kognitiv va





madaniy funksiyalarini yaqqol namoyon etadi. Frazelogizmlar orqali shakllangan lisoniy manzaraning tahlilida uning antropotsentrik xususiyatini alohida ta'kidlash zarur. Chunki tilning zamonaviy tafakkur paradigmasida inson markaziy figura sifatida namoyon bo'ladi. Antropotsentrik paradigma til va tafakkur munosabatlarida insonni mezon, baholovchi va idrok qiluvchi subyekt sifatida qaraydi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, frazeologik birliklar — bu nafaqat tayyor til birikmalari, balki inson tajribasi, emotsiyasi, hissiy holati va ijtimoiy munosabatlarining obrazli ifodasidir.

Frazeologik birliklarning mazmuniy yo'nalishi asosan insonga qaratilgan bo'lib, ular inson tafakkuri va hayotiy tajribasini markazga qo'yadi. Masalan, o'zbek tilidagi *"ko'ngli tog'dek"* (xotirjam, yengil tortgan holat), *"og'zi qulog'ida"* (shodlik holati) yoki *"yuragi orqaga tortdi"* (qo'rquv, xavotir) kabi frazeologizmlar insonning ichki kechinmalari va ruhiy holatlarini jonli, obrazli shaklda aks ettiradi. Bunday birikmalar til orqali inson ongi qanday faoliyat yuritishini, hissiyotlarni qanday kodlashini yaqqol ko'rsatadi.

Shu tariqa, frazeologizmlar lisoniy manzaraning antropotsentrik asosda shakllanishiga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular orqali til nafaqat aloqa vositasi, balki insonning dunyoni idrok etish, baholash va tasvirlash vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Til har bir xalqning tarixiy-madaniy xotirasini, qadriyatlar tizimini, urf-odat va dunyoqarashini saqlovchi va uzatuvchi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, mifologemalar til orqali xalq tafakkurida saqlanib qolgan qadimiy manzarani, arxetipik obrazlarni va ularning milliy ma'naviy mazmunini o'z lisoniy manzarasida yaratadi va nutqida aks ettiradi. Har bir xalqning mifologik obrazlari ularning milliy tafakkur mahsuli bo'lib, tegishli olam manzarasida joy oladi va bu obrazlar orqali tilning milliylik darajasi aniq namoyon bo'ladi. Masalan, O'zbek xalqining sevimli dostonidagi qahramon "Alpomish" — o'zbek xalqi ongida jasorat, vatanparvarlik, oilaparastlik, sadoqat kabi milliy qadriyatlar timsolidir. Bu obraz orqali nafaqat qahramonlik konsepti, balki o'zbek xalqining tarixiy, ijtimoiy va axloqiy ideallari ifodalanadi. Alpomish — bu o'zbek xalqi milliy ongidagi ideal erkak, xalq himoyachisidir. Shuningdek, "Zumrad va Qimmat" — bu ertak obrazlari o'zbek xalqining axloqiy qadriyatlari (haqiqat, adolat, hurmat, mehr, g'amxo'rlik, yovuzlikning jazosi) bilan bog'liq. Bu mifologema orqali xalq pedagogikasi, ma'naviy saboq va ijtimoiy stereotiplar tilga singdiriladi.





Bu misollardagi mifologik obrazlar orqali o'zbek xalqining milliy tafakkuri, qadriyatlari va orzu-umidlari ifodalanadi, ya'ni olamning milliy lisoniy manzarasi yaratiladi.

Ingliz tilidagi mifologemalarni tahlil qiladigan bo'lsak, "Pandora's box" — bu obraz yunon mifologiyasidan olingan bo'lib, u kutilmagan, nazoratdan chiqqan muammolar manbai sifatida ishlatiladi. Bu mifologema orqali xavf-xatar, bilimsizlikning oqibati yoki insonning qiziqishi natijasidagi zararli oqibatlar ifodalanadi. Bu ingliz tilidagi yovuzlik va ogohlantirish metaforasidir. Yoki yana bir mifologik birlik "Achilles' heel" — bu ibora zaif nuqtani bildiradi. Ingliz zabon xalq lisoniy tafakkurida bu obraz inson har qancha qudratli bo'lsa ham, muqarrar zaiflikka ega ekanini anglatadi. Bu esa inson kamchiliklarini anglash va realistik dunyoqarash bilan bog'liq. Bu mifologemalar orqali ingliz tilining G'arbiy madaniyatga asoslangan tarixiy-tarbiya modeli, realistik va analitik tafakkuri namoyon bo'ladi. Shunday qilib, mifologemalar ham xalq tafakkuri va tarixiy xotirasining lingvistik modeli sifatida namoyon bo'lib, ular olamning milliy lisoniy manzarasini shakllantirishda konseptual va semantik asos vazifasini bajaradi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlashimiz kerakki, olamning lisoniy manzarasi inson tafakkurining va tilning o'zaro integratsiyalashgan mahsuli sifatida shakllanadi va uni shakllantirishda mifologemalar, konnotativ so'zlar va metaforalar asosiy semantik-kognitiv vositalardan biri sifatida muhim rol o'ynaydi. Mifologemalar xalq ongida tarixiy-madaniy xotira va arxetipik obrazlarni saqlagan holda, qadimiy dunyoqarashni til vositasida ifodalashga xizmat qiladi. Konnotativ so'zlar esa nafaqat denotativ ma'noni, balki shu ma'noga bog'liq ijtimoiy, madaniy, hissiy qiymatlarni ham uzatib, tilning emotsional-estetik qirralarini boyitadi. Metaforalar esa inson tafakkurining asosiy obrazli mexanizmi sifatida, abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar orqali ifodalab, dunyo tasvirining gumanitar-falsafiy mohiyatini aks ettiradi. Bu vositalar, ya'ni mifologik asos, konnotativ boylik va metaforik ifoda — orqali til dunyoning milliy, madaniy va kognitiv xususiyatlarini mujassamlashtirib, lisoniy shaxs ongida olam manzarasining obrazli, mazmunli va o'ziga xos shaklini yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Цивьян Т. В. Лингвистические основы балканской модели мира. М, , 1990, с 5
2. А.А. Haydarov Konnotativ ma'noning fonetik vositalarda ifodalanishi Filol. fanlari nomzodi diss. Avtoreferati T.-2009
3. A.Ma'matov "Zamonaviy lingvistika", Toshkent "Tafakkur avlodi",2020





4. Sh.Usmanova “Lingvokulturologiya” darslik, Toshkent 2019

5. Баротова, Н. (2025). Анализ причин возникновения антропоцентрической парадигмы в современной лингвистике. Лингвоспектр, 5(1), 141–146. извлечено от <https://lingvospektr.uz/index.php/lngsp/article/view/827>

